

ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI YOSHLARNI DESTRUKTIV TA'SIRLARDAN HIMOYALASHNING ILMIY–NAZARIY ASOSLARI

Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

E-mail: xamidovashaxnoza393@gmail.com

Tel: +998 99 429 12 27

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro integratsiya davrida yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirilishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim, kreativ pedagogika, media va axborot savodxonligi, STEAM yondashuvi, tanqidiy fikrlash metodlari yoshlarning axloqiy immunitetini kuchaytiruvchi asosiy vositalar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida innovatsion metodlar o'quvchilarning zararli informatsion oqimlarga qarshi tura olishi, manipulyativ kontentni tahlil qilishi va ma'naviy barqarorligini saqlashi uchun samarali mexanizm ekanligi chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: destruktiv ta'sirlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, media savodxonlik, raqamli xavfsizlik, tanqidiy fikrlash, innovatsion pedagogika.

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ защиты молодёжи от деструктивных воздействий в условиях глобализации посредством инновационных образовательных технологий. Рассматриваются цифровое обучение, креативная педагогика, медиа- и информационная грамотность, подход STEAM, а также методы критического мышления как основные средства укрепления нравственного иммунитета молодёжи. В ходе исследования установлено, что инновационные методы являются эффективным механизмом, обеспечивающим способность учащихся противостоять вредным информационным потокам, анализировать манипулятивный контент и сохранять духовную устойчивость.

Ключевые слова: деструктивные воздействия, духовно-нравственное воспитание, инновационный подход, медиаграмотность, цифровая безопасность, критическое мышление, инновационная педагогика.

Abstract

This article provides a scientific-theoretical analysis of protecting youth from destructive influences in the context of globalization through innovative educational technologies. Digital education, creative pedagogy, media and information literacy, the

STEAM approach, and critical thinking methods are examined as key tools that strengthen youths' moral immunity. The study reveals that innovative methods serve as an effective mechanism enabling students to resist harmful information flows, analyze manipulative content, and maintain spiritual resilience.

Keywords: destructive influences, moral and ethical upbringing, innovative approach, media literacy, digital safety, critical thinking, innovative pedagogy.

Kirish.

XXI asr insoniyat oldiga katta imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf va chaqiriqlarni ham keltirib chiqarmoqda. Asosan, bugungi kunda internetning ommalashuvi, global axborot maydonining keskin kengayishi ya'ni bu tarmoqning cheksiz imkoniyatlari bilan bir qatorda, yolg'on axborotlar, ekstremistik materiallar, zararli mafkuraviy oqimlar, psixologik manipulyatsiyalar, virtual o'yinlar orqali zo'ravonlik targ'iboti kabi tahdidlar kuchayib, ijtimoiy tarmoqlarda nazoratsiz tarqalayotgan kontent yoshlar ongiga bevosita va bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida "yoshlarning ongini buzuvchi tahdidlarga qarshi ma'rifat, tarbiya va innovatsion ta'lim eng kuchli qalqon" ekanini alohida ta'kidlaydi. Aynan innovatsion ta'lim texnologiyalari bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Demak, ta'lim tizimining dolzarb vazifasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Ya'ni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, media savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli xavfsizlik bo'yicha kompetensiyalar berish, yoshlarni zararli g'oyalardan ma'naviy-axloqiy immunitet bilan himoyalash lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi — innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoya qilishning ilmiy-nazariy, konseptual va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda yangilangan pedagogik yondashuvlar destruktiv ta'sirlarga qarshi immunitet shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. I.A. Karimov ma'naviyatni millatning barqarorligi va mafkuraviy himoyasi sifatida talqin qiladi. Sh.M. Mirziyoyev yoshlarni informatsion xurujlardan himoyalashni ta'lim modernizatsiyasining asosiy vazifasi sifatida belgilaydi.

Pedagog olimlar Azizxo'jayev N., To'rayev O., Ochilov A. innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali yoshlarning ijtimoiy immunitetini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida innovatsion ta'lim texnologiyalari yoshlarni ma'naviy-informatsion tahdidlardan himoyalashning asosiy vositasi ekanligi ko'rinadi.

Xorijiy adabiyotlarda J. Dewey ta'limni jamiyat xavfsizligini mustahkamlovchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Slastenin interfaol metodlar yoshlarni ijtimoiy tahdidlarga bardoshli qiladi, deya ta'kidlaydi. OECD va UNESCO hisobotlarida media savodxonlik yosh avlodni radikallashtirishdan himoyalashning asosiy vositasi sifatida ko'rsatiladi.

Tadqiqotlar jarayoni asosan quyidagi metodlar asosida olib borilgan. Ya'ni ilmiy-nazariy tahlil, taqqoslash va komparativ tahlil, pedagogik tajriba, monitoring, test va diagnostika, o'quvchilar media-axborot faoliyatini kuzatish va o'qituvchilar bilan suhbat kabi metodlar yordamida taqqiqot 2024-yilda 6 ta umumta'lim maktabida, 7–11-sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Jami 420 nafar o'quvchi, 36 nafar pedagog tajribaga jalb etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bir nechta muhim ilmiy-amaliy natijalar aniqlanganligini ko'rish mumkin. O'quvchilar orasida destruktiv ta'sirlar darajasi diagnostika natijalari ko'ra o'quvchilarning 54% i zararli sayt yoki kontentga hayotida kamida bir marta duch kelganligini va 39% – feyk axborotni haqiqat deb qabul qilishgan hamda 27% – kiberbulling holatiga guvoh yoki qurbon bo'lganligi, shuningdek 31% – diniy yoki mafkuraviy manipulyatsiyalarga uchrash ehtimoli mavjudligini bu ko'rsatkichlar orqali profilaktikaning zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsion yondashuvlar qo'llanilganda natijalar tajribada quyidagi texnologiyalar ya'ni media savodxonlik darslari, STEAM loyihalari, axborot xavfsizligi bo'yicha treninglar va interfaol metodlar (sinkveyn, klaster, debat) va Case-study asosida tarbiya, tanqidiy fikrlash modullaridan foydalanilgan. Bu usullar qo'llanilgan guruhlarda axborot tahlil qilish ko'nikmasi 45% ga oshgan, feyk xabarlarini ajrata olish darajasi 34% dan 79% gacha ko'tarilgan, radikal kontentga qiziqish darajasi 40% ga kamaygan, ma'naviy-axloqiy immunitet ballari 27% ga oshgan va o'quvchilarning psixologik barqarorligi yaxshilanganligini ko'rish mumkin.

Demak, innovatsion ta'lim texnologiyalari — asosiy himoya mexanizmi ekanligini shuningdek, interfaol va raqamli yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni kuchaytirishini, bu esa manipulyatsiyaga berilmaslikni ta'minlashini ko'rish mumkin. Media savodxonlik — destruktiv g'oyalarga qarshi eng kuchli immunitetdir. UNESCO modeli bo'yicha o'quvchilar media matnini tahlil qilish, manbani tekshirish, manipulyatsiya belgilari aniqlashni o'rganishgan. STEAM — yoshlarning kreativ fikrlashi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirib, STEAM loyihalari o'quvchilarni ijtimoiy faol, mas'uliyatli, tadqiqotga moyil qiladi. Axborot xavfsizligi savodxonligi yoshlarni kiber tahdidlardan himoya qilib, European Commission modeli asosida kiberhujumlarni oldini olish ko'nikmasi shakllantiradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya innovatsion usullar bilan uyg'unlashganda yanada samarali bo'ladi. O'quvchi

ma'naviyatini zamonaviy vositalar bilan mustahkamlash eng samarali natija berishini isbotlash mumkin.

Destruktiv ta'sirlar — bu yosh ongida qadriyatlardan uzoqlashtirish ma'naviy bo'shliq yaratish ,agressiya, apatiya, befarqlikni kuchaytirish,psixologik beqarorlikni shakllantirish,yolg'on axborotga ishonuvchanlikni oshirish kabi oqibatlariga olib keluvchi tahdidlardir.Ular, asosan ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontenent ekstremistik targ'ibot,giyohvandlik, qimor va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi sahifalar pornografik materiallar psixologik manipulyatsiya feyk xabarlar va provokatsiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.Shu bois yoshlarni bu jarayonlardan himoya qilish raqamli davrning dolzarb vazifasidir.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining himoya mexanizmi ya'ni multimedia texnologiyalari vizual, audio va interaktiv darslar destruktiv kontentga qarshi tanqidiy tasavvur shakllantiradi.STEAM yondashuvi orqali fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi yoshlarning analitik tafakkurini rivojlantiradi.Gamifikatsiya o'quv jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish orqali o'quvchilar diqqatini ijobiy faoliyatga yo'naltiradi.Virtual treninglar esa hayotiy xavfli vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali yoshlarni ehtiyotkorlikka o'rgatadi. Media va axborot savodxonligi yoshlarni yolg'on axborotni aniqlash manipulyativ xabarlarni tahlil qilish zararli kontentni tanib olish shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash internetda xavfsiz xatti-harakat qilish ko'nikmalari bilan ta'minlaydi.Bu — destruktiv kontentdan himoyalashning eng muhim bo'g'ini ekanligini isbotlaydi.Shuningdek,tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan o'quvchi fakt va fikrni farqlaydi.Manipulyatsiyani tanlaydi,axborotni tekshiradi va muammolarga mustaqil yechim topadi radikal g'oyalarni qabul qilmaydi.Tanqidiy fikrlash — yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantiruvchi asosiy intellektual mexanizm sifatida eng muhimi hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zamonaviy modeli va innovatsion tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi.Milliy g'oya va qadriyatlar asosidagi darslar, psixologik treninglar,rolli o'yinlar,ma'naviyat soatlari,“sog'lom turmush tarzi” treninglari ,yoshlar liderligi dasturlari.Bu model destruktiv ta'sirlarga qarshi barqaror va samarali immunitet yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotdan olingan asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki o'quvchilarda axborot savodxonligi 38% ga oshganligi bu o'quvchilarni yolg'on ma'lumotdan himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Destruktiv kontentga ishonuvchanlik 52% dan 27% ga kamaydi.Interfaol darslarda qatnashgan o'quvchilar faolligi 45% ga oshgan. O'quvchilarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyati mustahkamlangan.. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ma'naviy pozitsiyasi ancha barqarorlashgan.Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar maktabda tarbiya sifatini sezilarli darajada oshirganligini ko'rish mumkin.Hozirgi axborot oqimlari sharoitida yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoya qilish uchun ta'lim tizimi tubdan

yangicha yondashuvlarga tayanishi zarur. Shu sababli innovatsion ta'lim — yoshlarni nafaqat bilim bilan qurollantiradi, balki ularni har qanday zararli axborot va mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi axloqiy-ruhiy immunitetning shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA.

Zamonaviy ta'limda innovatsion yondoshuvlar orqali yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalash bugungi ta'lim jarayonining eng muhim, dolzarb va strategik vazifalardan biridir. Darhaqiqat, bugungi kun axborot makonida o'quvchi-yoshlar turli destruktiv ta'sirlarga duch kelmoqda, bu esa ularning psixologik, ma'naviy va axloqiy kamolotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri — o'quvchilarda axborotga ongli, mas'uliyatli va tanqidiy munosabatni shakllantirishdir. Ayniqsa, bugungi raqamli davr sharoitida yoshlar axborot oqimining katta qismi bilan to'qnashadi, ularning bir qismi esa manipulyativ, zararli yoki destruktiv xabarlar bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda axborotni baholash, tahlil qilish va manipulyativ materiallarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida qo'llangan innovatsion pedagogik texnologiyalar — xususan media savodxonlik, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash mashg'ulotlari va raqamli xavfsizlik modullari — yoshlarni zararli axborot oqimlaridan samarali himoya qilish vositasi sifatida o'zini namoyon qildi. Ushbu yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning destruktiv g'oyalarga moyilligini sezilarli darajada kamaytiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, asoslab qaror qabul qilish va manipulyativ xabarlarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilim bilan, balki ma'naviy-axloqiy va intellektual jihatdan mustahkam shaxs sifatida shakllanadi.

Xalqaro tajribalar, xususan UNESCO, OECD va European Commission tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularni digital kompetensiyalar, axborot tahlili, media madaniyati va tanqidiy fikrlash bilan ham ta'minlashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu tajribalarni moslashtirish yuqori samaradorlikka ega bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, olingan natijalar ta'kidlaydiki, yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoya qilish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu esa ta'lim tizimida profilaktika mexanizmlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilarning media savodxonligini oshirish va oilalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Bunday strategiya nafaqat maktab amaliyotida, balki davlat ta'lim siyosati va tarbiya konsepsiyasida ham yuqori samaradorlik bilan qo'llanilishi mumkin. Natijada, innovatsion pedagogik

yondashuvlar yoshlarning axborotga ongli munosabatini shakllantirish, ularni manipulyativ va zararli axborotdan himoya qilish, shuningdek, ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashning eng maqbul vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.[12–18; 44–49; 115–118.]
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.Toshkent: O'zbekiston, 2021.[56–61; 143–150.]
3. Azizxo'jayev N. Pedagogik texnologiyalar.Toshkent, 2019.[25–33; 78–85; 101–110].
4. Dewey J. Democracy and Education.New York: Macmillan, 1916.[87–94; 175–182].
5. Slastenin V.A. Pedagogika.Moskva, 2015.[62–70; 210–218.]
6. Quronov M., Ibrohimov X. Umumiy pedagogika.Toshkent, 2023.[98–105; 165–172.]
7. UNESCO. Media Literacy Education Framework.2022.[14–22; 37–44.]
8. Ochilov A. Ta'lim tizimida innovatsiyalar.Toshkent, 2020.[54–60; 121–129]
9. Malikova. „ Axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion yondoshuvlarning ahamiyati.” Barkamol Avlod ,2018.[13-18]